

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 194
«3» 07 20 24 y.



BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH
ISHCHI O'QUV DASTURI
(SILLABUS)
(sirtqi)

Bilim sohasi: 400 000 - Biznes, boshqaruv va xuquq
Ta'lim sohasi: 410 000 - Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi: 60410100 - Buxgalteriya hisobi va audit
(tarmoqlar bo'yicha)

Namangan-2024

Fan/modul' kodi MANACC6	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kreditlar 6
Fan/modul' turi majburiy	Ta'lim turi O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil Ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Boshqaruv hisobiga kirish	24 (12 m/12 a)	156	180

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda auditing ob'ektlari (xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari, ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi xarakati, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va umumlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy, moliyaviy faoliyatini tug'risidagi to'liq ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida taqdim etish, moliyaviy va boshqaruv hisobini tashkil qilish, uning normativ xuquqiy asoslari) bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifasi - talabalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda mablag'lar, ularning tashkil topish manbalarining xarakatini tug'ri ettirish, hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini shaffofligini ta'minlash, boshqa sub'ektlar bilan hisob siyosati to'g'ri tashkil etilishini qonunlar, qarorlar va boshqa normativ hujjatlar o'rganishlari va o'zlashtirishlari, bilim, ko'nikma va malakalari shakllanishi hisoblanadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: «Boshqaruv hisobi» faniga kirish

Ilg'or boshqaruv hisobi va uning ahamiyati, Ilg'or boshqaruv hisobi fanining predmeti, metodi va vazifalari, Rivojlangan mamlakatlarda ilg'or boshqaruv hisobini tashkil etish tajribasi.

2-mavzu: Boshqaruv hisobini tashkil qilish

Boshqaruv hisobini joriy etish. Boshqaruv hisobini tashkil etishning uslubiy jihatlari. Boshqaruv hisobini tashkil etishning tamoyil va bosqichlari

<p>3-mavzu: Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish Xo'jalik jarayonlari. Ta'minot jarayoni hisobi. Ishlab chiqarish jarayoni hisobi. Sotish jarayonining hisobi</p> <p>4-mavzu: Ilg'or boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish Xarajatlarni hisoblash tizimi. Ishlab chiqarish xarajatlarning dastlabki va yig'ma hisobi. Xarajatlarni hisoblashning asosiy xususiyatlari</p> <p>5-mavzu: Moddiy xarajatlar hisobi* Moddiy xarajatlar tavsifi. Moddiy xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish. Moddiy xarajatlarning faoliyat xususiyatiga ko'ra asosiy turlarga ajratish va uning hisobini yuritish. Ishlab chiqarishga berilgan materiallarning tannarxini aniqlash</p> <p>6-mavzu: Mehnat xarajatlari hisobi Mehnat xarajatlari haqida tushunchasi. Mehnat xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish. Mehnat xarajatlari hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>7-mavzu: Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari Mahsulot tannarxining ishlab chiqarishni boshqarishdagi ahamiyati. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari. «Standart-kost» tizimi bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish. «Direkt-kosting» tizimi bo'yicha xarajatlarni hisobga olish. «JT» tizimi bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish. «ABC» tizimi bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish. «SCA» tizimi bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil qilish. Funktsional qiymat tahlili usulini boshqaruv hisobida qo'llash.</p> <p>8-mavzu: «Activity based costing (abc)» tahlili* Activity Based Costing (ABC) tahlilining tavsifi. «Activity Based Costing (ABC)» tahlilini yuritilishini xorij tajribasi.</p> <p>9-mavzu: Boshqaruv qarorlarini qabul qilish* Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish. Bahoni shakllantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish. Boshqaruv hisobi tizimida investitsion loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilish</p> <p>10-mavzu: «Standart-kost» usuli* «Standart-kost» usulini qo'llanilishi. Standart-kost usulini qo'llashning xorij</p>

11-mavzu: Xo'jalik yurituvchi subyekti budjeti va uni shakllantirish*
Korxonalarda budjetlashirishning ahamiyati. Budjetlashirishni boshqaruvda tutgan o'mi. Budjet nazorati

12-mavzu: Budjetlashirish va budjet nazorati*
Ishlab chiqarish faoliyatida budjet tushunchasini qo'llanilishi. Belgilangan va msolashuvchan budjetlar. Budjetni nazorat qilish tizimi: afzalliklari, cheklovlari va o'matilishi

13-mavzu: Transfert bahoni shakllantirish*
Transfert bahoni shakllantirishning iqtisodiy mazmuni. Transfert bahoni shakllantirishni tashkil etish.

14-mavzu: O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishni rivojlantirish yo'nalishlari*

Boshqaruv hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish istiqbollari. Boshqaruv hisobini isloh qilishning nazariy va amaliy jihatlari.

“Boshqaruv hisobiga kirish” fanidan ma'ruza mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	«Boshqaruv hisobi» faniga kirish	2
2	Boshqaruv hisobini tashkil qilish	2
3	Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish	2
4	Ilg'or boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish	2
5	Mehnat xarajatlari hisobi	2
6	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari	2
JAMI		12

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

III. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu: «Boshqaruv hisobi» faniga kirish
- 2-mavzu: Boshqaruv hisobini tashkil qilish
- 3-mavzu: Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish
- 4-mavzu: Ilg'or boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish

5-mavzu: Moddiy xarajatlar hisobi*

6-mavzu: Mehnat xarajatlari hisobi

7-mavzu: Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari

8-mavzu: “Activity based costing (abc)” tahlili*

9-mavzu: Boshqaruv qarorlarini qabul qilish*

10-mavzu: «Standart-kost» usuli*

11-mavzu: Xo'jalik yurituvchi subyekti budjeti va uni shakllantirish*

12-mavzu: Budjetlashirish va budjet nazorati*

13-mavzu: Transfert bahoni shakllantirish*

14-mavzu: O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishni rivojlantirish yo'nalishlari*

“Boshqaruv hisobiga kirish” fanidan amaliy mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	«Boshqaruv hisobi» faniga kirish	2
2	Boshqaruv hisobini tashkil qilish	2
3	Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish	2
4	Ilg'or boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish	2
5	Mehnat xarajatlari hisobi	2
6	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari	2
JAMI		12

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jilozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalardan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

Mustaqil topshiriq uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

Mustaqil topshiriqning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talaba o'qituvchi rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:
darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zgartirish; avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash; maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

yangi texnikalarni, apparaturalarni, imtalab jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish; talabning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish; faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (xizmat o'yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.) masofaviy (distantstion) ta'lim. o'quv qo'llanmalari yordamida fan mavzularini o'rganish.

Talabalar Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarning mazmuni va hajmi

1. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishni rivojlantirish yo'nalishlari
2. Transfert bahoni shakllantirish
3. Budgetlashtirish va budget nazorati
4. Xo'jalik yurituvchi subyekt budjeti va uni shakllantirish
5. Mehnat xarajatlari hisobi
6. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari
7. Boshqaruv hisobini tashkil qilish
8. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish
9. Segmentar hisobotning mohiyati, turlari va shakllar
10. Korxonada baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'rni va mazmuni
11. Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom va integratsiyalashgan vaziyatlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar
O'quv rejada kurs ishi rejalashtirilmagan.

Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar

1. Moddiy xarajatlar hisobi
2. "Activity based costing (abc)" tahlili
3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish

<p>4. Xo'jalik yurituvchi subyekt budjeti va uni shakllantirish</p> <p>5. Budgetlashtirish va budget nazorati</p> <p>6. Transfert bahoni shakllantirish</p> <p>7. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishni rivojlantirish yo'nalishlari</p> <p>Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrnng boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.</p>	<p>3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>«Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun quyidagi talablar qo'yiladi:</p> <p>-kursni o'rganish jarayonida talabalar har bir o'tilgan mavzu bo'yicha belgilangan hajmda reyting ballarini to'plashlari, kursning «tayanch» so'z va iboralarini chuqur o'zlashtirishlari, test savollari asosida o'z bilimlarini sanab borishlari lozim;</p> <p>-o'qitish jarayonining oraliq va yakuniy baholash haftalarida yozma nazorat ishlarini bajarishlari, mustaqil ish sifatida referatlar tayyorlashlari, fanga oid chizmalar va jadvallar tayyorlab kelishlari lozim.</p> <p>Shu bilan bir qatorda:</p> <p>- boshqariladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv hisobining mohiyati, o'rni va ahamiyati; -boshqaruv hisobining vazifalari va tamoyillarining amaldagi ahamiyati; boshqaruv hisobining ilmiy-tadqiqot usullari va ularning umumiy qisqartirilgan usullar bilan o'zaro bog'liqligi; boshqaruv hisobining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tashkil etish tamoyillari va ular samaradorligining ilmiy-nazariy jihatlari to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></p> <p>- boshqaruv hisobining ilmiy-nazariy jihatlari; boshqaruv hisobining turlari; boshqaruv hisobining bajaradigan funksiyalarini; boshqaruv hisobida qo'llaniladigan usullar; boshqaruv hisobining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini boshqarishdagi o'rni va ahamiyatini <i>bilishi va ularndan foydalana olishi; (ko'nikma)</i></p> <p>- boshqaruv hisobiga oid mahalliy ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganish; boshqaruv hisobiga oid xorijiy ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganish; internet tarmog'i orqali boshqaruv hisobiga doir ma'lumotlarni, tahlil to'g'risidagi ilmiy-ommabop jumalardan foydalanish; boshqaruv hisobining alohida mavzulari bo'yicha <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. (malaka)</i></p>
---	--

<p>4.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mintaqaviy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. 	<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fandan talabalarni bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son <u>buyrug'i</u> bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.</p> <p>Diqqat: Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.</p> <p>Talabalar bilimini baholash mezonlari</p> <p>Boshqaruv hisobiga kirish fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.</p> <p>1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab oladi. Talabaning nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.</p> <p>OB=N.T(1,2,3) +A.M+MT(3tadan)/3</p> <p>Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari; A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.</p> <p>Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60% holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.</p> <p>OB≥60%,</p> <p>Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi. Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60% dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi. YaN≥60%.</p>
--	--

<p>Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.</p> <p>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oralig'ida baholanadi.</p> <p>Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rtacha 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.</p> <p>Yakuniy nazorat 2-5 baho oralig'ida baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.</p>	<p>6.</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Umurzaqov D. Biznesda amaliy buxgalteriya hisobi. Darslik. -N.: Sunrise-pro, 2024. -379 b. 2. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi: Darslik.-T.: "Yangi nashr". 2011. -312b (203) 3. Karimov A.A., Erkinova D. Boshqaruv hisobini tashkil etishning uslubiy jihatlari: avtonom va integratsiyalashgan tizimlar. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 4, avgust, 2017. 4. Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziyev I., Rizayev N., Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-Moliya" 2008. -444 b. 5. Egamberdieva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2023. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish masalalarini o'rganish. Mirziyoyev S.H.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b. 3. Qo'ziyev I.N., Hamdamov B.K., Avazov I.R., Ochilov F.Sh. Auditing xalqaro standartlari. Elektron darslik. -T.: TMI. 2021 y. 5. Xolmirzaev Ulug'bek Abdulazizovich. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent – 2023
---	---

	<p>Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 3. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti 4. www.ziyonet.uz – Axborot-ta'lim portali
7.	<p>Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul' uchun ma'sullar: D.X.Umurzaqov – NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida kata o'qituvchisi. A.B.Isomuxamedov – NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida stajyor o'qituvchi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: U.Xolmirzayev – NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. PhD. O.Sobirov – NamMTI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. PhD.</p>